

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni. Toshkent viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 2907,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 8,3 ming kishiga yoki 1,0 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1431,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,2 %), qishloq aholisi soni 1476,0 ming kishini (50,8 %) tashkil etdi.


E'tibor bering: 2019 yil yanvar-mart

- Aholi soni **8,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **13,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **4,4 mingta nikoh** va **0,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Toshkent viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-mart)




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Yangiyo'l tumanida 203,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,1 %ni) va Qibray tumanida 195,7 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Ohangaron shahrida 36,6 ming kishini (1,3 %) va Nurafshon shahrida 47,8 ming kishi (1,7 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Yuqorichirchiq, Parkent va O'rtachirchiq tumanlarida 1,5 %ga, Oqqo'rg'on, Chinoz va Yangiyo'l tumanlarida 1,4 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Bo'stonliq, Zangiota, Toshkent tumanlarida va Chirchiq shahrida viloyatida 0,7 %ni tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 13,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,4 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,8 promillega kamaygan (2018 yilning yanvar-mart oylarida 16,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Yangiyo'l (12,5 promilledan 25,1 promillega) va Ohangaron (13,1 promilledan 20,9 promillega) shaharlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Ohangaron (17,1 promilledan 16,7 promillega) tumanida va Piskent (16,0 promilledan 15,8 promillega) tumanida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Toshkent viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-mart

	2018yil	2019yil	O'sish sur'ati, %
Toshkent viloyati	11725	13201	112,6
Nurafshon sh.	137	214	156,2
Olmaliq sh.	499	600	120,2
Angren sh.	677	709	104,7
Bekobod sh.	315	376	119,4
Chirchiq sh.	501	574	114,6
Ohangaron sh.	118	191	161,9
Yangiyo'l sh.	182	370	203,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	490	493	100,6
Ohangaron	393	388	98,7
Bekobod	677	754	111,4
Bo'stonliq	576	675	117,2
Bo'ka	611	668	109,3
Quyichirchiq	460	490	106,5
Zangiota	777	903	116,2
Yuqorichirchiq	590	636	107,8
Qibray	780	848	108,7
Parkent	745	777	104,3
Pskent	388	388	100,0
O'rtachirchiq	653	727	111,3
Chinoz	554	693	125,1
Yangiyo'l	891	878	98,5
Toshkent	711	849	119,4

Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 3,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,5 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega ko'paydi (2018 yilning yanvar-mart oylarida 6,1 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Bekobod (4,5 promilledan 4,9 promillega) va Bo'stonliq (5,6 promilledan 5,7 promillega) tumanlarida o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Oqqo'rg'on (5,9 dan 4,3 promillega), Bo'ka (5,1 dan 4,4 promillega), Ohangaron (5,6 dan 4,6 promillega) va Piskent (6,1 dan 4,7 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent viloyati bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-mart


	2018yil	2019yil	O'sish sur'ati %
Toshkent viloyati	4317	3944	91,3
Nurafshon sh.	71	71	100
Olmaliq sh.	248	214	86,3
Angren sh.	273	254	93,0
Bekobod sh.	138	120	87,0
Chirchiq sh.	348	288	82,7
Ohangaron sh.	75	64	85,3
Yangiyo'l sh.	119	110	92,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	148	109	73,6
Ohangaron	129	108	83,7
Bekobod	169	189	111,8
Bo'stonliq	230	234	101,7
Bo'ka	152	135	88,8
Quyichirchiq	171	127	74,3
Zangiota	243	236	97,1
Yuqorichirchiq	230	203	88,3
Qibray	316	266	84,2
Parkent	187	195	104,3
Pskent	147	116	78,9
O'rtachirchiq	220	204	92,7
Chinoz	168	181	107,7
Yangiyo'l	263	278	105,7
Toshkent	272	242	89,0

Demografik holat

2019 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,5 %i o'sma kasalliklaridan, 5,2 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 8,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,4 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 8,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 59,5 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 24,1 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 5,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, va 5,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2019 yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 9,3 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 1,1 ming kishiga (2018 yilning yanvar-mart oylarida 7,4 ming kishi bo'lgan) ko'paygan.



Tabiiy o'sish:
9,3 ming kishi

Demografik holat

Nikoh va nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,4 ming nikoh va 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,2 va 1,3 promilleni tashkil etdi.



Toshkent viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik yanvar-mart

	Tuzilgan nikohlar soni			Nikohdan ajralishlar soni		
	2018 y	2019 y	O'sish sur'ati, %	2018 y	2019 y	O'sish sur'ati, %
Toshkent viloyati	3887	4412		949	915	
Nurafshon sh.	64	69		22	13	
Olmalik sh.	182	192		65	63	
Angren sh.	152	188		41	60	
Bekobod sh.	125	144		46	57	
Chirchiq sh.	175	184		93	76	
Ohangaron sh.	46	62		14	18	
Yangiyo'l sh.	91	82		21	26	
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	162	199		32	28	
Ohangaron	94	103		21	17	
Bekobod	228	230		44	35	
Bo'stonliq	195	200		46	66	
Bo'ka	191	185		33	25	
Quyichirchiq	204	183		46	34	
Zangiota	209	255		71	50	
Yuqorichirchiq	248	257		56	47	
Qibray	231	241		67	83	
Parkent	274	436		34	29	
Pskent	131	116		20	16	
O'rtachirchiq	259	313		47	29	
Chinoz	186	201		38	41	
Yangiyo'l	253	355		48	47	
Toshkent	187	217		44	55	

Migratsiya. 2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 5,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,7 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 1,5 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	4,4	4,5
Ko'chib ketganlar	5,9	5,3
Migratsiya saldosi	-1,5	-0,8

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Yangiyo'l tumanida (minus 0,3 ming kishi), Chirchiq shahrida (minus 0,1 ming kishi), Oqqo'rg'on tumanida (minus 0,1 ming kishi) Bo'ka (minus 0,9 ming kishi), Zangiota, Chinoz (minus 0,8) tumanlarida qayd etildi.